

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURSUNOV HOJIAKBAR HAMIDULLO O‘G‘LI**

**KAR VA ZAIF ESHITUVCHI YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINING**  
**AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**  
**TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.03 –Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li**

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari ..... 3

**Турсунов Ходжакбар Хамидулло угли**

Технологии развития информационной компетенции глухих и слабослышащих учащихся старших классов ..... 21

**Tursunov Khojiakbar Hamiddullo ugli**

Technologies for enhancing the information competence of deaf and hard-of-hearing upper-grade students ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURSUNOV HOJIAKBAR HAMIDULLO O‘G‘LI**

**KAR VA ZAIF ESHITUVCHI YUQORI SINIF O‘QUVCHILARINING  
AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH  
TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.03 –Maxsus pedagogika**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2026**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8868 - raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.cspu.uz](http://www.cspu.uz) ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Abdullaeva Gavhar Saparovna  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Voxobova Muniraxon Sadirdinovna  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** Andijon davlat pedagogika instituti.


Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «31» 03 kuni soat 16<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: [tvchdpi@cspu.uz](mailto:tvchdpi@cspu.uz)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (455 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «19» 03 kuni tarqatildi.  
(2026-yil «19» 03 daqi № 10 - raqamli reestr bayonnomasi).

  
F.U. Qodirova  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari  
doktori, professor

  
I.D. Qodirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

  
D.O. Ximmataliyev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor



## **KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon ta'lim tizimi takomillashuvida imkoniyati cheklangan o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishda korreksion-pedagogik va axborot texnologiyalarini keng miqyosda qo'llashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishiga erishish, ularda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni keyingi bosqich ta'limga, mehnatga, mustaqil hayotga tayyorlash jarayoniga interaktiv dasturiy vositalarni keng tatbiq etish, korreksion va inklyuziv ta'lim samaradorligini monitoring qilishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini sohaga yo'naltirib transformatsiyalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda innovatsion yondashuvlar asosida yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning axborot-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan modernizatsion korreksion-didaktik tizimini takomillashtirish, ularda mediasavodxonlikni tarkib toptirishning samarali shakl, metod va vositalarini modernizatsiyalash bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot-kommunikativ kompetensiyani kognitiv, motivatsion-refleksiv faoliyatga oid kreativ darajalarda rivojlantirishning nazariy-pedagogik, metodik jihatlarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv va korreksion ta'lim mazmuni va tashkiliy aspektlari bilan bog'liqlikda yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari pedagoglari innovatsion faoliyatini kompetensiyaviy yo'naltirish orqali erishiladi. Bunda mutaxassislarning o'quv-ijtimoiy axborotlarga korreksion-pedagogik ishlov berish malakalarini, individual-metodik ijodkorligini barqaror tarkib toptirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda inklyuziv va korreksion ta'limning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasi asosida ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yaxshilash, mustaqil hayotga kompleks tayyor kar va zaif eshituvchi bitiruvchilarni ilmiy asoslangan innovatsion muhitda keyingi ta'limga va mustaqil hayotga tayyorlash bo'yicha huquqiy-me'yoriy asoslar takomillashtirilgan. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta'lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish"<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni, axborot-kommunikativ muhitga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish, uzluksiz ta'limning muayyan bo'g'inlarida sifatli ta'limni ta'minlash maqsadida informatsion-dasturiy ta'minotni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar A.Abduqodirov, A.Aripdjanova, U.Begimqulov, M.Fayziyeva, Z.Ismailova, N.Muslimov, N.Tayloqov, O.Teshabayeva, X.Xaldarov, M.Xamidova, R.Yuldasheva, S.G'ulomov, Sh.Sharipov, T.Shoyardonovlar tomonidan amalga oshirilgan. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning shaxsiy sifatleri va akademik potentsiali hamda nutqiy malakalarini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiylashtirish masalalari G.Abdullayeva, N.Bekmurodov, U.Fayziyeva, X.Gaynutdinov, Z.Mamarajabova, F.Qodirova, X.Raximova, D.Yakubjonova va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Y.Astafyeva, I.Bajenova, B.Malinovskiy, N.Kachalova, Y.Klimenko, G.Kruglyakova, A.Melikxova, I.Smirnova, N.Shmatko, Y.Zair-Bek, I.Zabolotskaya va boshqalarning tadqiqotlarida ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'lim oluvchilarda informatsion-analitik malakalarni tarkib toptirish masalalari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan D.Patti, S.Hayward, J.Gilliam, D.Johnson, T.Vaughan, F.Cramer, G.Bond, U.Gabriellarning ilmiy izlanishlarida o'quvchilarning axborot-kommunikativ savodxonligini oshirish, adaptiv ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etishning amaliy-texnologik asoslari yoritib berilgan.

Ushbu izlanishlar muammoni turli jihatlarida o'rganan bo'lsada, aynan respublika sharoitida Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini o'rgatish bo'yicha dars mashg'ulotlari an'anaviy tarzda o'tilishi va o'qitishning integrativ-elektron metodik tizimini yaratish masalasi hali keng ko'lamda o'rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi

Farg‘ona davlat universitetining “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga mental arifmetika yordamida arifmetik amallarni o‘rgatish” mavzusidagi ilmiy-amaliy rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

inklyuziv va maxsus ta‘lim sharoitida axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ochib berish;

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning korreksion-ijtimoiy didaktik ta‘minotini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Farg‘ona, Toshkent viloyatlaridan jami 247 nafar yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar jalb etildi.

**Tadqiqotning predmetini** yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy, diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik tahlil (ma‘lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etishning korreksion-rivojlantiruvchi jarayonlarini vizual-jest bilan ichki integrallashuv darajasining real ta‘limiy sharoitdagi barqarorligini ta‘minlash asosida aniqlashtirilgan;

nutqiy muloqot korreksion fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari mobil muloqot va axborot kompetensiyasini dars va mashg‘ulot aloqadorligida shakllantirishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan “IT Navigator” ilovasini fikr va assotsiatsiya uyg‘unligida ta‘sirchan refleksiya muhitida modifikatsiyalash asosida ochib berilgan;

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish modelining korreksion-didaktik komponenti kognitiv faoliyatda integrativ lug‘atni o‘zlashtirishga doir algoritmik bosqichlarda ta‘limiy faollashtiruvchi axborotli-metodik majmuani kompensatsiya darajasi dinamikligida qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari imitatsion o‘qitish shakllarini aralash ta‘lim (blended

learning) jarayonida adaptiv qo‘llashga doir ergonomik talablarni hisobga olish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan;

inklyuziv va korreksion ta‘lim sharoitida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini kasbiy-amaliy yo‘nalganlikda takomillashtirish maqsadida “Media va axborot savodxonligi” o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan;

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini tarbiyaviy mashg‘ulotlarda rivojlantirish jarayonining dasturiy ta‘minotini takomillashtirishga qaratilgan “IT Navigator” ilova ishlab chiqilgan;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida olib boriluvchi va o‘quvchilarning axborot makonida erkin muloqotini tashkil etishga mo‘ljallangan “Nutqiy muloqot” korreksion fanidan 30 ta predmetlar guruhiga mansub so‘zlardan lug‘at ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati “Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar axborot kompetensiyasi” tushunchasining mazmun-mohiyati, umumiy tuzilmasi ochib berilganligi, o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari, xususiy tamoyillari aniqlanganligi hamda korreksion dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar integratsiyasining leksik va texnologik-dasturiy ta‘minoti o‘quvchilar imkoniyatlariga mos adaptivlashtirilganligi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning usul va vositalari korreksion-didaktik jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dars va mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning verbal va noverbal nutqiy axborot kontekstidagi ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalardan soha bo‘yicha o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanma va darsliklarni ishlab chiqishda, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni uzluksiz ta‘lim makonida erkin harakatlanishga o‘rgatuvchi muhitni modellashtirish jarayonlarini takomillashtirishda hamda ota-onalarga nutqni oson va qulay o‘rgatish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy natijalar asosida:

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etishning korreksion-rivojlantiruvchi jarayonlarini vizual-jest bilan ichki integrallashtirish darajasining real ta‘limiy sharoitdagi barqarorligini ta‘minlashga oid takliflari “Media va axborot savodxonligi” nomli o‘quv qo‘llanmasini

mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 509034-raqamli guvohnoma). Natijada, yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilgan;

nutqiy muloqot korreksion fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari mobil muloqot va axborot kompetensiyasini dars va mashg‘ulot aloqadorligida shakllantirishni ta’minlashga oid takliflari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish Agentligi tomonidan Qo‘qon davlat pedagogika institutining “Imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida shaxmat sport turini ommalashtirish” mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2025-yil 22-fevraldagi 326/04-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning muloqot qilish yo‘llari va ijtimoiylashtirish mexanizmlari amaliyotga keng joriy etish imkoniyati yaratilgan;

yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish modelining korreksion-didaktik komponenti kognitiv faoliyatda integrativ lug‘atni o‘zlashtirishga doir algoritmik bosqichlarda ta’limiy faollashtiruvchi axborotli-metodik majmuani kompensatsiya darajasi dinamikligida qo‘llash bo‘yicha takliflari “Bo‘lajak olim” tanlovi doirasidagi startap innovatsion loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston respublikasi Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi «Raqamli texnologiyalar markazi» unitar korxonasi 2025-yil 15-maydagi 008/05.25-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning dasturiy-texnik imkoniyatlari hamda didaktik ta’minotini kengaytirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, 126 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik**

**asoslari**” deb nomlanib, unda ta’limni axborotlashtirish sharoitida maxsus pedagogikaning zamonaviy yo‘nalishlari, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot bilan ishlash jarayoniga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar, nutq-tafakkur-axborot o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ijtimoiylashuv jarayonining nazariy-metodologik asoslari, axborot kompetensiyasini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar yoritilib, tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida axborot kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha mavjud holat tahlil qilinib, o‘quvchilarning idrok, tafakkur va nutq rivojlanishidagi xususiyatlar bilan bog‘liq metodik ehtiyojlar hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalarining kompensator imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, axborot kompetensiyasini rivojlantirish tizimining tamoyillari, pedagogik yondashuvlari va metodik shart-sharoitlari aniqlashtirildi.

Ilmiy manbalar tahlili axborot kompetensiyasi kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar uchun nafaqat ta’limiy kategoriya, balki psixologik qo‘llab-quvvatlashning kompleks tizimi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Mazkur kompetensiya ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqilligini oshirsa, ijtimoiy hayotda uni jamiyat bilan faol o‘zaro aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni faqat mazmunni yetkazish emas, balki o‘quvchini zamonaviy axborot muhitida erkin va ongli ravishda harakatlana oladigan subyekt sifatida tayyorlashga qaratilgan murakkab ijtimoiy-pedagogik faoliyatdir.

Mahalliy tadqiqotchi G.Abdullayevaning fikricha, axborot kompetensiyasi bolaning jamiyat bilan muloqotga kirishishi, idrok doirasining kengayishi va kommunikativ imkoniyatlarining o‘sishi bilan uzviy bog‘liq. Bu esa kar bolalarning ijtimoiy hayotga kirib borishidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu yondashuv axborot kompetensiyasining ijtimoiy integratsiya jarayonidagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi.

N.Morozova kar va zaif eshituvchi bolalarni ta’limga o‘z vaqtida jalb etishning ahamiyatini quyidagicha sharhlaydi: “Uzoq muddat so‘zning yo‘qligi barcha analizatorlarning faoliyatlarida ko‘rinadi, natijada idrok o‘ziga xos shakllanadi. Predmetli tashqi olam yetarlicha turkumlanmay, mohiyati tavsiflanmagan holda nutqsiz qabul qilinadi”. Shu sababli, kar bolalarda obrazli tafakkurning ildamlashi va so‘z-mantiq tafakkurining ortda qolishi kuzatiladi. Olimaning fikrida keltirilgan “Nutqsiz qabul qilinadi”ning o‘rnini, ya’ni so‘zlarning hayotdagi o‘rni va ma’nosini o‘rgatishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi.

F.Qodirovaning fikricha, kar va zaif eshituvchi bolalarda so‘zlashuv nutqini maqsadli rivojlantirmasdan turib, hatto zamonaviy texnologiyalar ham yetarli natija bermaydi. Bu xulosa axborot kompetensiyasining nutq, idrok va tafakkur jarayonlarining o‘zaro uyg‘unligida shakllanishini tasdiqlaydi va nutqni rivojlantirish axborot kompetensiyasiga eltuvchi asosiy yo‘l ekanligini ko‘rsatadi.

N.Jinkin va F.Raularning ta’kidlashicha, og‘zaki nutq kar bolalar uchun tilning leksik va grammatik tizimini egallashga yetarli zamin bo‘la olmaydi. Bu vazifani ular uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda yozma nutq bajaradi. Demak,

axborot kompetensiyasi nutqsiz rivojlanmaydi, nutq esa psixikaning ijodiy voqeligi sifatida o'quvchilarning axborot bilan ishlashdagi kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

N.Muslimovning kompetensiyaga oid qarashlari tadqiqot jarayonining muhim metodologik mezonini belgilab berdi. Olim kompetensiyani bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy qobiliyatlarning yaxlit integratsiyasi sifatida talqin etadi. Shu nuqtai nazardan, axborot kompetensiyasi kar o'quvchining faqat ta'limiy faoliyat emas, balki uning ijtimoiy hayotdagi imkoniyatlarini ham belgilovchi asosiy salohiyat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, mazkur yondashuv axborot kompetensiyasini kar o'quvchining shaxsiy kamoloti va ijtimoiy moslashuvida strategik ahamiyatga ega omil sifatida e'tirof etish uchun metodologik asos yaratdi


Tadqiqotimizning ilmiy konsepsiyasini shakllantirish jarayonida pedagogik atamalar izohli lug'atida berilgan "kompetensiya – shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarni maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda qo'llay olish qobiliyati" mazmunidan foydalanildi va mazkur asosga tayanilgan holda **mualliflik ta'rifi** yaratildi: "Axborot kompetensiyasi – kar va zaif eshituvchi o'quvchining raqamli muloqot makonida yo'l topish, axborotni izlab topish, anglash, qayta ishlash va mazmunan yaratish jarayonida namoyon bo'ladigan integrativ salohiyatidir, u nutq, tafakkur va ijodiy tasavvur uyg'unligida shakllanib, o'quvchini jamiyatga olib chiquvchi mustahkam ijtimoiy-ko'prik vazifasini bajaradi."

Axborot kompetensiyasining shaxsiy rivoj va ijtimoiy moslashuvdagi o'rni, muloqotning ijtimoiy integratsiyadagi ahamiyati kar va zaif eshituvchi o'quvchi axborotni mustaqil izlay oladigan, tahlil qiladigan va uni yetkazadigan shaxsga aylangandagina jamiyatda o'z o'rnini topa oladi. Natijada, axborot kompetensiyasi kar o'quvchi uchun nutq–axborot–ijtimoiylashuv uyg'unligini ta'minlaydigan, uni jamiyatga faol integratsiyalashuvga yo'naltiruvchi muhim shaxsiy salohiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Kar o'quvchilar ko'pincha axborotni tayyor shaklda qabul qiladi, izlash va qayta ishlashning mustaqil mexanizmlari esa yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Bu esa, o'quvchining mustaqil fikrlashini cheklaydi, raqamli axborot makonida erkin harakatlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, kar o'quvchilar uchun elektron ta'lim muhitini moslashtirish hamda ularda axborotni tushunish, axborot matnini yaratish ko'nikmasini shakllantirish muhimi ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalarning uyg'un rivojlantirilishi axborot kompetensiyasining to'laqonli shakllanishini ta'minlaydi. Shu bilan bog'liq ravishda tadqiqotda yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'quv-bilish faoliyatida vizual-jest tizimidan metodik foydalanishni korresion-rivojlantiruvchi jarayonlar bilan ichki integrallashuv darajasining real ta'limiy sharoitdagi barqarorligini ta'minlash asosida aniqlashtirishga ustuvorlik berildi. Vizual-jest tizimi kar bolalar muloqotini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqot davomida korreksion darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik va didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni multimodal axborot muhiti asosida o'qitishning psixologo-pedagogik va tashkiliy-metodik shart-sharoitlari o'rganildi. Jumladan, yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini

rivojlantirishning quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish korreksion ta'sirning optimallashtirishga xizmat qilishi aniqlandi(1-rasm).



**1-rasm. Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari**

Axborot kompetensiyasini rivojlantirishning mazkur jihatlari bolaning so'zlashuv nutqining intensiv rivojlanishiga, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishi va ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi. Shu sababli, tadqiqotning keyingi bosqichida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning maxsus amaliy-texnologik tizimi, didaktik ta'minotini ishlab chiqish lozim degan xulosalarga kelindi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida korreksion fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilari axborot kompetensiyasini rivojlantirishda multimediali vositalardan foydalanish, yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'minoti yoritilgan.

Tadqiqot davomida yuqori sinf o'quvchilarida axborot kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari va texnologiyalari joriy etildi. Bunda imitatsion o'qitish jarayonida adaptiv qo'llashga doir ergonomik talablarni hisobga olishga ustuvorlik berildi. Buning uchun **“Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli”** ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodik modelning korreksion-didaktik komponenti kognitiv faoliyatda integrativ lug'atni o'zlashtirishga doir algoritmik bosqichlarda ta'limiy faollashtiruvchi axborotli-metodik majmuani kompensatsiya darajasi dinamikligida qo'llash asosida takomillashtirildi. Metodik modelni maqsadli, mazmunli, tashkiliy va natijaviy kabi o'zaro izchil bog'langan to'rtta blok tashkil etadi. Quyida yuqori sinf kar va zaif eshituvchi

o‘quvchilarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining modeli keltiriladi (2-rasm).

Maqsadli blok kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda axborot kompetensiyasini shakllantirishning strategik maqsadi va ustuvor vazifalaridan iborat bo‘lgan bo‘lsa, mazmunli bloki axborot kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari va yondashuvlarini o‘z ichiga oldi. Tanlangan tamoyillar “Individuallashtirish” (korreksion-kompensatsion, integrativlik, tizimlilik) hamda “Multimodallik” (axborot xavfsizligi va selektiv tanlash) kabi tamoyillarga ajratildi.

Tashkiliy blok modelning amaliy mexanizmini ifodaladi. Unda tadqiqotda qo‘llanilgan multimodal darslar, interaktiv dars shakllari, imitatsion mashg‘ulotlar, korreksion mashg‘ulotlar kabi ta’lim shakllari, korreksion-kompensatsion texnologiyalar, multisensor yondashuv asosidagi texnologiyalar, Media va axborot savodxonligi texnologiyalari, "Speech Club" klublari ifodalandi. Shuningdek, moslashtirilgan o‘quv mazmuni, multimodal resurslar, vizual lug‘atlar, subtitrlil videolar va “IT-Navigator” mobil ilovasi asosidagi metodik ta’minot mujassamlashtirildi. Ushbu tashkiliy va natijaviy blokni o‘zaro bog‘liqligi “O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ikki bosqichli didaktik-metodik jarayoni” orqali ta’minlandi. Bu jarayon: 1) Didaktik-loyihalash bosqichi va 2) Amaliy-metodik bosqichini tashkil etdi.


Natijaviy blok esa model samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Axborotni tushunish, kontekstni izohlash, multimodal matn yaratish kabi mezonlar asosida o‘quvchilar uch darajada baholandi: yuqori, o‘rta (analitik-refleksiv), past. Tajriba natijalari axborotni tushunish va axborot matnini yaratish ko‘nikmalarida sezilarli o‘sish bo‘lganini ko‘rsatib, modelning yuqori samaradorligini tasdiqladi.

Model kar o‘quvchini axborot jamiyatining faol va teng huquqli ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilib, ta’lim jarayonida texnologiyalarning samarali qo‘llanishini ta’minlovchi kuchli didaktik omilga aylantiradi.

Tadqiqot davomida joriy etilgan modelning maqsadli hamda tashkiliy bloklarida ko‘zda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida rejalashtirilgan barcha pedagogik choralarning tizimli joriy etilishiga erishildi. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida joriy etilgan modelning samaradorligi tahlil etildi.

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi amaliy-texnologik tizim ishlab chiqildi. U korreksion fanlar integratsiyasi, multimodal ta’lim vositalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan refleksiv muhit, adaptiv topshiriqlar va mobil ilovaga tayangan holda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqoti va kreativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qildi. Ta’limiy tadqiqotda nutqiy muloqot korreksion fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning modifikatsiyalangan didaktik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mobil muloqot va axborot kompetensiyasini dars hamda mashg‘ulot aloqadorligida shakllantirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan **“IT Navigator”** mobil ilovasi ishlab chiqildi.

“IT Navigator” mobil ilovasining maqsadi - eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim jarayonida fikr va assotsiatsiya uyg‘unligida ta’sirchan refleksiya muhitini yaratish, multimodal idrok orqali kognitiv faoliyatda integrativ lug‘atni kengaytirish hamda muloqotdagi cheklovlarning oldini olishdan iborat. Ilova inklyuziv raqamli ta’lim talablariga mos holda o‘quvchilarning sensor tizimlari faoliyatini kompensatsiyalashga yordam berib, ularni ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etadi.



**2-rasm. Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli**

Ushbu mobil ilova zaif eshituvchi o'quvchilar uchun subtitrli videodarslar, audio-va vizual yordamchilar (Text-to-Speech texnologiyasi), ishora tilidagi tushuntirishlar, adaptiv o'qitish texnologiyasi orqali savollarga javob olish (Google Gemini), interaktiv kommunikatsiya texnologiyalari mashqlari va multimodal topshiriqlar majmuasidan iborat bo'lib, o'quv jarayonini eshitishdan tashqari ko'rish, o'qish, manipulyatsiya va virtual ishtirok kanallari orqali kengaytiradi. Axborot uzatish passiv emas, balki o'quvchining faol subyekt sifatidagi ko'pkanalli muloqoti (o'qituvchi, dastur va mazmun bilan) asosida tashkil etiladi, bu esa individual sezgi kanallariga tayanib o'rganish strategiyalarini shakllantirishga imkon beradi. "IT Navigator" mobil ilovasi quyidagi bo'limlardan iborat bo'lib, ularning har biri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning axborotni tushunish va axborot matnini yaratish kabi ko'nikmalarini multimodal rivojlantirish xizmat qiladi.

Mobil ilovaning asosiy komponentlari quyidagilar sanaladi:

1. Hujjat yaratish – multimodal shakllardan iborat (Axborot kompetensiya rivojlantirishda Ms Word, Ms Excel, Ms Publisher dasturlari imkoniyatlari, o'rnatish ketma-ketligi, dastur interfeysi tuzilishi, amaliy ishlar uchun vizual kontentlar).

2. Audio dasturlar (Sound Forge, Cubase) - kar va zaif eshituvchi o'quvchilar ushbu bo'lim orqali nutqiy mashqlarni yaratish, tovush va nutqni vizual idrok etishni rivojlantirish, nutq talaffuzini nazorat qilish, interaktiv eshitish va ritm mashqlari, ijodiy faoliyat va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Nota muharrirlari (Sibelius, Finale) - kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda musiqiy axborotni vizual asosda o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda raqamli va estetik kompetensiyalarni shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

4. Slayd shou yaratish (Ms PowerPoint, Movie Maker) - kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborotni vizual qabul qilishni kuchaytirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda raqamli va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

5. Video tahrirlash (Capcut, Adobe Premier) - kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborotni vizual asosda o'zlashtirish, multimedia materiallar yaratish hamda raqamli axborot kompetensiyasini rivojlantirishda zarur.

6. Grafik dasturlar (Adobe Fotoshop, Coreldraw, AutoDeskMaya) - kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborotni vizual asosda qabul qilish, grafik axborotni yaratish hamda raqamli va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali ta'lim vositasi hisoblanadi.

Mobil ilovaning qo'shimcha imkoniyalari quyidagilar hisoblanadi: o'quvchilar bilan fikrlar almashish; ustozlar bilan fikr almashish; hukumat portallari bilan ishlashda vizual kontentlar; AI yordamchisi; "text-to-speech" (TTS) texnologiyasi (nutq va talaffuzni vizual va akustik tarzda birlashtirish orqali til va nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi); nutq muloqot fani uchun 30 ta predmet guruhiqa mansub so'zlardan rasmiy lug'at (vizual idrokni rivojlantirish, leksik zaxirani boyitish, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish). Ushbu mobil ilova yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning kognitiv faoliyatda integrativ lug'atni o'zlashtirishini algoritmik bosqichlarda ta'limiy faollashtiruvchi axborotli-metodik majmuani kompensatsiya qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Texnologik vositalar yordamida yaratiladigan qulay sharoit bolaning qiyin idrok etiladigan nutqni osonlashtiradi va uni faol o'quv faoliyatiga jalb etadi. Tadqiqot natijalari tahlili FM tizimlaridan foydalanilganda nutqni tushunish o'rtacha 10-15 dBga yaxshilanishi, o'quvchining diqqatini jamlash qobiliyati ortishi va dars mazmunini to'liqroq idrok etishi tasdiqladi. Zaif eshituvchi o'quvchilar uchun dars jarayonini **FM tizimlari** asosida tashkil etish texnologik yechim sifatida qaralib, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmi sifatida ham baholandi. Ushbu yondashuv maxsus texnologik vositalar yordamida o'quvchilarning ta'limdagi faol ishtirokini sezilarli darajada oshirib, nutq qabul qilish va idrok etish imkoniyatlarini kengaytirib, shovqin, masofa va akustik to'siqlarni minimallashtirdi.

Ta'limiy tajriba jarayonida texnologik yondashuvni tatbiq etish jarayonida dars va tarbiyaviy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning korreksion-pedagogik texnologiyasi tuzilmasi ishlab chiqildi. Bunda "Nutqiy muloqot" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyati kengligi inobatga olindi. "Nutqiy muloqot" darslarida "1-4-5" strategiyasi qo'llaniladi. Bu strategiyaning mohiyati 1 ta so'z-tushunchaning 4 xil shakli o'quvchining xotirasida saqlanishiga erishishdir. Shu maqsadga ta'limiy tadqiqotda kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida olib boriluvchi, o'quvchilarning axborot makonida erkin muloqotini tashkil etishga mo'ljallangan "Nutqiy muloqot" korreksion fanidan 30 ta predmetlar guruhiga mansub so'zlardan iborat **"30 ta predmet-30 ta so'z lug'ati"** ishlab chiqildi. Ushbu metodik vosita IT-Navigator mobil ilovasi hamda FM tizimlari bilan integratsiyalashtirildi.

Ta'limiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishda FM tizimlari asosidagi dars va mashg'ulotlar, multimodal va multimediyali kompyuter texnologiyalari, "IT-Navigator" mobil ilovasi, "30 ta predmet-30 ta so'z lug'ati" kabi metodik vosita muhim rol o'ynaydi. Raqamli ta'lim vositalari, onlayn platformalar va adaptiv o'qitish tizimlaridan foydalanish esa o'quv jarayonining individuallashtirishini ta'minlab, o'quvchilarning axborot kompetentligi darajasini oshiradi. Shuningdek, "Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar axborot kompetensiyasini rivojlantirish" modelining maqsadi to'g'ri belgilanganligini hamda qo'llanilgan metodik tizimning optimal ekanligini ko'rsatdi. Joriy etilgan modelning mazmunli, tashkiliy, natijaviy bloklarida ko'zda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida rejalashtirilgan barcha pedagogik chora-tadbirlarning tizimli joriy etilishiga erishildi va tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida modelning samaradorligi tahlil etildi.

Tadqiqot ishining **"Yuqori sinf o'quvchilarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va bosqichlari va tajriba-sinov ishlari tahlili yoritib berilgan.

"Yuqori sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar axborot kompetensiyasini rivojlantirish" modeli hamda uning samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Toshkent shahar 101-sonli, Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani 2- va 17-sonli, Farg'ona viloyati, Quvasoy shahar 90-sonli ixtisoslashtirilgan

